

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11642192>

## ISLOM DINIDA MA'NAVIVYI-TARBIYAVIY MASALALARNING AKS ETISHI

**Shomurotova Nilufar**

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti  
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 212-guruh talabasi

**Yangiboyev Sanjarbek**

Urganch davlat pedagogika instituti 2 bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola orqali siz Islom dini, Qur'oni Karim va Hadislarda ta'limiy-tarbiyaviy masalalarning aks etishini ko'rib chiqasiz. Islomda odob-axloqning qay darajada ulug'lanishi, insoniy fazilatlar, axloqiy qimmatli fikr va ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

***Kalit so'z:** Islom, Qur'oni Karim, hadis, axloqiy tarbiya, madaniyat, inson kamoloti, ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya.*

**Kirish:** Din-(arab. — e'tiqod, ishonch, itoat) — Xudo yoki xudolarga, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli hisoblanadi. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, Din — Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir. Qur'onning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritir

ekanmiz, uning insonning ma'naviy kamolga yetishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz. Shuning uchun u mana necha asrlardan beri insoniyatning eng ulug' qadriyati sifatida e'zozlab kelinmoqda. Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi, insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy, ma'naviy poklik va yetuklikka, mehnat qilishga hamda yer yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tinchlik, poklik, halollik, axloqiylik, tenglik, erkni tarannum etadi. Buni biz Qur'onning inson kamolotga erishishiga qay darajada o'rin egallashini, uning insonga, butun borliqqa munosabatini, turmush tarzi va xulq-odob me'yorlarini tarkib toptirishdagi ulkan ahamiyatidan ham bilsak bo'ladi.

Qur'onda har bir mo'min-musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir, deb tushuntiriladi. Chunki, islom dinining asosiy maqsadi ham yomonlikning oldini olish, kishilarga yomonlikning xunuk oqibatlarini tushuntirish hamda ularni doimo to'g'ri yo'ldan yurishga chaqirishdan iboratdir. Qur'oni karimda barcha tarbiyaviy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etiladi. Ularga aniqlik kiritish va izohlab uqtirish uchun Muhammad (s.a.v) o'z hadislarini aytganlar. Hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinch-totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barcha Qur'oni karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezonini sanaladi.

Islom dinining muhim xususiyatlaridan biri — uni qabul qilgan xalqlar vakillari uchun Islom aqidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini berganidadir. U o'ziga xos 3 taraqqiyot bosqichi yoki davrni o'tadi. Birinchisini, shartli ravishda, Qur'on davri deb atash mumkin. Qur'oni Karimda o'z aksini topgan Arabiston

aholisining diniy ong darajasini ifoda etuvchi diniy-siyosiy va ijtimoiy qarashlar, huquqiy va axloqiy mezonlar butun musulmon olami uchun hozirgacha shak-shubhasiz umumiy qadriyat hisoblanadi. Deyarli 4 asr davom etgan ikkinchi davr Islomda umumislomiy ahkomlar hukmronligi ostida turli fikrlar yo‘l qo‘yilgani bilan ajralib turadi. Islomdagi yo‘nalishlar, mazhablar va fiqqlar ana shu davrda paydo bo‘ldi. Musulmonlarning diniy birligi hal qilib bo‘lmaydigan muammo bo‘lib qoldi. X-XI asrlarda an’anaga sodiq sunniylar bilan imomiy shialar, mo‘taziliylar hamda ash’ariylar o‘rtasida munosabatlar keskinlashib ketdi. Xalifa Qodir (991–1031) an’anaviy Islomni qonun asosida barcha uchun majburiy bo‘lgan davlat dini deb qaror toptirishga urinib ko‘rdi. Shu maqsadda an’anaga sodiq ilohiyotchilar imzolagan “Dinning qodiriy ramzi” e‘lon qilindi. Unda “haq din” deb e‘lon qilingan an’anaviy diniy ta’limotning asosiy qoidalari mufassal bayon qilib berildi, undan chetga chiqish jazolashga loyiq e‘tiqodsizlik deb qaraldi, biroq bu tadbir ham Islomda diniy birlik o‘rnatilishiga olib kelmadi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o‘ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me‘yorlari ham bor. Bunday axloq me‘yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Asqar Zunnunov Pedagogika tarixi «ШАРК» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ - 2004
2. В.Х.ХОДЖАЙЕВ «UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI» «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017
3. Xorazm mutafakkirlarining pedagogik qarashlari fanidan o‘quv-uslubiy majmua Urganch-2023